

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Maxmutaliyev	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
G.S.Sidiqova	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyası	118
X.X.Xaydaraliyev	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
R.A.Hamroqulov	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash	128
E.I.Allomov	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari	134
T.A.Eshimov	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
Sh.M.Robilova	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi	147
Q.M.Xakimov	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
Sh.V.Djalalov	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
X.M.Sotvaldiyeva	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	159
S.I.Quziyev	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari	162
N.K.Ergasheva	
Methodology and outcomes of english language teaching	168
M.Axmedova	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
G.Astonova	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
G.R.Astonova, M.M.Kaharova	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar	179
N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova	
Nutq o'stirishning metodik usullari	183
M.S.Ro'ziboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar	188
N.N.Nabiyeva	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati	193
D.I.Asqarova	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar	197
D.T.Yuldasheva	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari	202
Y.A.Mirzaboyev	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	206
R.Sh.Sharofutdinova	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	210

**GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA O'XSHASH VA FARQLI JIHATLAR****СРАВНЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ В ГЕРМАНИИ И УЗБЕКИСТАНЕ****COMPARISON OF EDUCATIONAL REFORMS IN GERMANY AND UZBEKISTAN****Astonova Go'zalxon Raxmonaliyevna** 

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Kaharova Mavlyuda Mukarramovna 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya

Hozirgi zamonda har bir jamiyat xususiy ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda, chunki u kelajak avlodni maqsadli shakllantirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Turli mamlakatlarda o'ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqib, ta'limni tashkil etishda turilcha yondashuvilar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'isisida"gi PQ2909-sonli qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. [1]

Mustaqillik yillarda iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonalv shakli va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik yo'naliishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi va qilinmoqda. [2]

Mazkur qarorda professor-o'qituvchilarning kasb mahoratini kuchaytirish, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor oliy o'quv yurtlariда malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta'lim olishi hamda respublikamizning tayanch oliy o'quv yurtlari qoshida qayta tayyorgarlikdan o'tishi va malaka oshirishi ta'lim sifati va samaradorligini yuksaltirishda asosiy vazifa sifatida qo'yildi. Mamlakatning qator oliy ta'lim muassasasi bilan AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy hamda ta'lim muassasalarini bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilgani o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimi bilan bog'liq leksik birlikdarni qiyosiy tadqiq etish maqsadida, dastlab Germaniya va O'zbekistondagi ta'lim muassasalarining tuzilishi, tashkil etilishi, o'quv rejalarini va dasturlari bo'yicha o'xshashlik va farqli jihatlar aniqlandi. Ushbu ikki tizimi tahlil qilish nazarda tutilgan mamlakatlarda qabul qilingan ta'lim yondashuvlari va strategiyalarini chuqur tushunish imkonini beradi, shuningdek, ularning ta'lim maqsadilariga erishishdagi samaradorligi va dolzarbligini baholaydi.

Аннотация

В настоящее время каждое общество уделяет большое внимание развитию системы частного образования, поскольку она играет важную роль в обеспечении стабильного социально-экономического развития страны путем целенаправленного формирования подрастающего поколения. В разных странах существуют разные подходы к организации образования, основанные на конкретных исторических, культурных и социальных условиях. Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № РП2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» соответствует приоритетным задачам коренного совершенствования системы высшего образования и социально-экономического развития нашей страны в данном случае он был принят с целью коренного пересмотра содержания подготовки кадров, создания необходимых условий для подготовки высококвалифицированных специалистов на уровне международных стандартов. За годы независимости, исходя из реальных потребностей экономики и общественной жизни, была проделана и проводится большая работа по модернизации системы высшего образования в нашей стране, внедрению современных форм и технологий обучения, совершенствованию направлений специализации для подготовки специалистов. В данном решении необходимо усилить профессиональное мастерство профессорско-преподавательского состава, повысить квалификацию педагогических кадров, а также повысить их квалификацию в вузах-партнерах зарубежных стран, получить степень магистра и доктора, пройти переподготовку в базовых высших учебных заведениях нашей республики и повышение квалификации было поставлено основной задачей в повышении качества и эффективности образования. Ряд высших учебных заведений страны установили отношения

сотрудничества с ведущими научными и образовательными учреждениями США, Великобритании, Франции, Германии, Италии, Нидерландов, России, Японии, Южной Кореи, Китая и других подобных стран. важный. С целью проведения сравнительного исследования лексических единиц, относящихся к системе образования, впервые были выявлены сходства и различия в структуре, организации, учебных планах и программах учебных заведений Германии и Узбекистана. Анализ этих двух систем обеспечивает глубокое понимание образовательных подходов и стратегий, принятых в целевых странах, а также оценку их эффективности и актуальности для достижения образовательных целей.

Abstract

Nowadays, every society pays great attention to the development of the private education system, because it plays an important role in ensuring the stable socio-economic development of the country by purposeful formation of the next generation. Different countries have different approaches to the organization of education based on specific historical, cultural and social conditions. In the years of independence, based on the real demands of the economy and social life, great work was done and is being done to modernize the higher education system in our country, to introduce modern forms and technologies of teaching, and to improve specialization areas for training specialists. Decision No. PQ2909 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 20, 2017 "On measures for the further development of the higher education system" corresponds to the priority tasks of the fundamental improvement of the higher education system and the socio-economic development of our country in this case, it was adopted in order to fundamentally revise the content of personnel training, to create the necessary conditions for the training of highly qualified specialists at the level of international standards. In this decision, it is necessary to strengthen the professional skills of professors and teachers, to improve the qualifications of pedagogical staff, as well as to improve their qualifications at foreign partner higher educational institutions, to receive master's and doctoral studies, and to undergo retraining at the base higher educational institutions of our republic, and skill development was set as the main task in improving the quality and efficiency of education. A number of higher education institutions of the country have established cooperative relations with the leading scientific and educational institutions of the USA, Great Britain, France, Germany, Italy, the Netherlands, Russia, Japan, South Korea, China and other similar countries is important. In order to conduct a comparative study of lexical units related to the educational system, similarities and differences in the structure, organization, curricula and programs of educational institutions in Germany and Uzbekistan were first identified. The analysis of these two systems provides an in-depth understanding of the educational approaches and strategies adopted in the target countries, as well as an assessment of their effectiveness and relevance in achieving educational goals.

Kalit so'zlar: ta'lif tizimi, o'quv reja, o'qitish usullari, baholash, ta'lif standartlari, imtihon, ta'lif siyosati

Ключевые слова: система образования, учебная программа, методы обучения, оценивание, образовательные стандарты, экзамен, образовательная политика

Key words: educational system, curriculum, teaching methods, assessment, educational standards, examination, educational policy

KIRISH

Germaniya va O'zbekiston ta'lif tizimini tartibga soluvchi amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, rasmiy o'quv rejalarini va dasturlari, jumladan, ta'lif bosqichlari, mavjud fanlarning mazmuni va tuzilishi, o'qitish usullari va samaradorligini baholash, ularning zamonaviy telab va muammolarga muvofiqligini ko'rib chiqish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, ikki mamlakat ta'lif tizimlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqish har ikki mamlakatda ta'lif tizimini maqsadli isloh qilish uchun foydali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati markazlaridan biri. Bu mamlakatdan Gyote, Gegev, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlar yetishib chiqqan va mamlakatni dunyoga mashhur qilgan Germaniya- ildizi asrlarga borib tutashuvchi ilmiy maktablar maskani. Xalqaro doirada e'tirof etilgan nemis ta'lif muassasalarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Nemis xalqiga xos temir intizom, birso'zlilik xislatlari ham dastlab aynan ta'lif dargohlarida shakllantiriladi.

Germaniya Federativ Respublikasi Yevropaning markazida joylashgan bo'lib, to'qqiz qo'shni davlat bilan o'ralgan. Milliy hududi 357 000 km²ni tashkil etadi. Germaniyada tahminan 83 million aholi istiqomat qiladi, bu uni Yevropa Ittifoqidagi eng nufusli davlatga aylantiradi. 19 milliondan ortiq aholi migratsiya tarixiga ega, shu jumladan, 9 milliondan ortiq chet elliqlar va 9,8 milliondan ortiq Germaniya fuqarolari. Davlat va rasmiy til nemis tilidir. Brandenburg va Saksoniyada sorb (vend) tilidan foydalanan bo'yicha maxsus qoidalar mayjud.[3]

GFR – Germaniya Federativ Respublikasi. Amaldagi konstitutsiyasi – Das Grundgesetz 1949-yil 23-mayda qabul qilingan, unga 1954, 1956, 1990, 1993 va 1994-yillarda qo'shimchalar kiritilgan. Davlat boshlig'i — federal prezident. 1949-yildagi Konstitutsiya (R1) an'anaviy federal tartibni, xususan, ta'lif, fan va madaniyat sohalarda davom etishini belgilaydi. Madaniy suverenitet deb ataladigan sohalarda qonunchilik va boshqaruv uchun asosiy javobgarlik

PEDAGOGIKA

federal shtatlar zimmasiga tushadi. Federalizm Germaniyaning tarixan rivojlangan mintaqaviy tuzilishidagi adolatni ta'minlaydi va hokimiyatlar bo'linishining elementi va demokratik davlatda xilma-xillik, raqobat va fuqarolarga yaqinlik kafolati hisoblanadi. Federalizmdan tashqari, Germaniya Federativ Respublikasi ta'lif tizimi uchun – *das Bildungs- und Erziehungswesen* mafkuraviy va ijtimoiy pluralizm asosiy tamoyil hisoblanadi.[4]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nemis ta'lif tizimining bosh organi *Kultusministerkonferenz* (KMK) – Ta'lif va madaniyat vazirlari kengashi bo'lib, u Germaniyaning turli federal shtatlari ta'lif vazirlarini birlashtirgan tashkilotdir. U mamlakatning turli hududlari o'tasida hamkorlik, ta'lif va madaniyat siyosatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lif tizimida mazkur vazifa Vazirlar Mahkamasi zimmasida bo'lib, ta'lif va madaniyatga oid bir necha vazirliklar uning tasarrufida faoliyat yuritadi.

KMK Germaniyada ta'lifni rivojlantirish va standartlashtirish, ilg'or tajriba almashinish, shuningdek, muhim ta'lif muammolariga umumi yondashuvlarni ishlab chiqish vazifalarini bajaradi. KMK ta'lif standartlari, imtihonlar, malakalarni tan olish, kasb-hunar ta'lifi, chet tillari, ilmiy tadqiqotlar va ta'lifning boshqa jihatlari kabi turli mavzulardagi masalalarni hal qiladi.

KMK a'zolari Germaniyaning 16 ta federal shtatlari ta'lif va fan vazirliklari – *Länder Kultus- und Wissenschaftsministerien* birlashtiradi. Kengash yig'ilishlarida muntazam ravishda dolzarb muammolarni muhokama qilish va federal shtatlar tomonidan ta'lif siyosatini shakllantirish uchun kerakli bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqish masalalarini ko'rib chiqadi. KMK Germaniyadagi turli ta'lif tizimlari o'tasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlikda ish ko'rishda muhim rol o'yaydi. U mamlakat ta'lifini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, *Länder Kultus- und Wissenschaftsministerien* esa Germaniya federal shtatlarining ta'lif va fan vazirliklar mavjud bo'lib, har bir federal shtatning o'z ta'lif va fan vazirliklari tegishli mintaqada ta'lif siyosati va ilmiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'uldir. Ushbu vazirliklar har bir federal shtatda turlicha nomlanadi. Ammo ularning umumi maqsadi bir xil, ularning vazifasi milliy va mintaqaviy standartlarga muvofiq keluvchi sifatli ta'lif va tadqiqotlarni ta'minlashdan iborat. Ular ta'lifning turli jabhalarini boshqaradi jumladan:

ta'lif dasturlari va standartlari: maktablar, universitetlar va boshqa ta'lif muassasalari uchun o'quv dasturlari va ta'lif standartlarini ishlab chiqadi;

ta'lif muassasalari va ma'muriyat: ta'lif muassasalari, jumladan, muktab, kollej va universitetlar boshqaruvi va faoliyatini nazorat qiladi;

moliyalashtirish: ta'lif va ilmiy tadqiqotlar uchun moliyaviy resurslarni budget chekllovlarini va ustuvorliklariga muvofiq taqsimlaydi;

ta'lif sifati va akademik standartlar: ta'lif sifatini ta'minlash, universitetlar va ilmiy muassasalarda akademik me'yornarni tartibga solish;

Ilmiy tadqiqotlar: universitet va ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish.

Har bir *Länder Kultus- und Wissenschaftsministerien*ning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari mavjud bo'lib, ular mintaqaviy ehtiyoj va sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Biroq ularning barchasi Germaniyada ta'lif va ilm-fanning milliy daraja bo'yicha yuqori sifatini ta'minlash uchun o'zaro hamkorlikda ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lif olish huquqi xuddi Germaniyadagi kabi davlat Konstitutsiyasi tegishli bandlarida belgilab qo'yilgan. Farqli jihatida butun mamlakat ta'lif sohasi bo'yicha ikkita vazirlik faoliyat yuritadi: Ularning birinchisi: → Maktabgacha va muktab ta'lifi vazirligi,

ikkinchisi: → *Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi*.

Maktabgacha va muktab ta'lif vazirligi maktabgacha, boshlang'ich sinf, umumi o'rta va maxsus kasb-hunar ta'lifi uchun mas'uldir. *Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi* esa ilm-fan va tadqiqotlar, malakali kadrlar, sifatli ta'lif uchun mas'uldir. Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Germaniyada ta'lif uchun dastlabki mas'uliyat (*Die Verantwortlichkeit für das Bildungswesen*) *Länder Kultus- und Wissenschaftsministerien* va *Kultusministerkonferenz* nomli davlat organlariga yuklatilgan. O'zbekistonda esa mazkur vazifa ikkita vazirliklar, ya'ni Maktabgacha va muktab ta'lifi vazirligi hamda *Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi* o'tasida taqsimlangan.

XULOSA

Germaniyada ta'lim tizimi federal tarzda tashkil etilgan va alohida shtatlar (Bundesländer) tomonidan boshqariladi. Har bir shtatning o'ziga xos ta'lim qonunlari va siyosati bor. O'zbekistonda ta'lim tizimi markazlashgan holda milliy hokimiyat organlari tomonidan boshqariladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimi, ta'limni boshqarish va tashkil etishni aks ettiruvchi leksik birliklarda ma'lum farqlarni yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сонли қарори. 2017 йил, 20 апрель.
2. Миралиева Д. Жаҳон таълим тизими. Уқув услубий мажмua. – Тошкент: Иқтисодиёт., 2016 й., – Б.30
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Germaniya>
4. Финк Д.А. Система образования в Федеративной Республике Германии. Право и государство, № 3-4 (76-77), 2017. С.25-37